

VI. TRANSPORT

Yuk tashish. 2023-yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transporti tomonidan 37,1 mln. tonna yuk tashilgan bo‘lib, o‘shish sur‘ati 2022-yilga nisbatan 100,8 % ni tashkil qildi.

Yuk aylanmasi avtomobil transporti turlari tomonidan 902,3 mln. tn-km.ni tashkil etdi va 2022-yilga nisbatan o‘shish sur‘ati 106,2 % ni tashkil qildi.

Avtomobil transportida yuk tashish va yuk aylanmasi

	<i>2023-yil yanvar-dekabr</i>	<i>2022-yilga nisbatan foiz hisobida</i>
Tashilgan yuk, <i>mln. tn</i>	37,1	100,8
Yuk aylanmasi, <i>mln. tn-km</i>	902,3	106,2

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning avtomobil transportining yuk aylanmasining o‘shish sur‘ati 2022-yilga nisbatan 103,1 % ni tashkil etdi va 410,7 mln. tn-km. ga yetdi. Yuk aylanmasining umumiy hajmida hususiy yuk tashuvchilarning ulushi 90,7 % ni tashkil etdi (2022-yilda 93,6 foiz).


Qoraqalpog‘iston Respublikasining shahar va tumanlar bo‘yicha tashilgan yuk bo‘yicha yetakchi o‘rinni Nukus shahri (8 754,9 ming tonna) egallaydi. Shu bilan birga, eng yuqori tonnani To‘rtko‘l (7 051,6 ming tonna) va Amudaryo (4 152,8 ming tonna) tumanlarida kuzatildi.

Shahar va tumanlar kesimida yuk tashish, ming tonna
(2023-yilning yanvar–dekabr holatiga)

	<i>Jami tashilgan yuk ming tonna</i>	<i>2022-yilga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, foiz hisobida</i>
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	37 056,2	100,8	100,0
<i>shahar:</i>			
Nukus	8 754,9	101,0	23,7
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	4 152,8	101,7	11,2
Beruniy	2 360,4	101,5	6,4
Bo‘zatov	308,4	103,0	0,8
Qorao‘zak	1 715,8	101,2	4,6
Kegeyli	582,6	87,0	1,6
Qo‘ng‘irot	3 205,6	95,5	8,7
Qonliko‘l	49,2	100,8	0,1
Mo‘ynoq	300,2	105,1	0,8
Nukus	1 039,5	101,2	2,8
Taxiatosh	1 656,9	102,3	4,5
Taxtako‘pir	593,8	97,6	1,6
To‘rtko‘l	7 051,6	102,5	19,0
Xo‘jayli	1 224,9	101,2	3,3
Chimboy	930,6	102,2	2,5
Shumanay	196,0	102,0	0,5
Ellikqal‘a	2 933,0	102,1	7,9

Ko‘rsatilgan yuk tashishda yuqori bo‘lmagan ko‘rsatkichlar Qonliko‘l (49,2 ming tonna), Shumanay (196,0 ming tonna) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Tashilgan yukning umumiy hajmida shahar va tumanlarning ulushi, % da (2023-yil yanvar-dekabr)



Hududlar bo‘yicha tashilgan yukning yuqori ulushi bo‘yicha yetakchi o‘rinni Nukus shahar (23,7 foiz) egalladi. Shu bilan birga To‘rtko‘l (19,0 foiz) va Amudaryo (11,2 foiz) tumanlari ulushiga to‘g‘ri keladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining yuk aylanmasi hajmida yetakchi o‘rinni Nukus shahri (216 539,3 ming tonna-km) egalladi. Shu bilan birga eng yuqori ko‘rsatkich To‘rtko‘l (154 864,1 ming tonna-km) va Ellikqal‘a (97 220,6 ming tonna-km) tumanlarida kuzatildi.


Shahar va tumanlar kesimida yuk aylanmasi,

ming tonna-km

	<i>ming tonna-km</i>	<i>2022-yilga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, foiz hisobida</i>
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	902 315,9	106,2	100,0
<i>shahar:</i>			
Nukus sh.	216 539,3	122,2	24,0
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	91 811,9	102,2	10,2
Beruniy	71 813,6	102,4	7,9
Bo‘zatov	12 685,3	104,1	1,4
Qorao‘zak	17 076,3	102,6	1,9
Kegeyli	14 169,6	92,8	1,6
Qo‘ng‘irot	67 668,0	97,5	7,5
Qonliko‘l	1 244,4	100,4	0,1
Mo‘ynoq	6 430,1	103,4	0,7
Nukus	22 744,2	101,8	2,5
Taxiatosh	50 003,6	106,6	5,5
Taxtako‘pir	14 493,3	102,2	1,6
To‘rtko‘l	154 864,1	102,6	17,2
Xo‘jayli	36 057,4	102,3	4,0
Chimboy	20 497,4	103,4	2,3
Shumanay	6 996,8	102,9	0,8
Ellikqal‘a	97 220,6	102,0	10,8

Ko‘rsatilgan yuk aylanmasidagi yuqori bo‘lmagan tonna-km quyidagi shahar va tumanlar Qonliqo‘l (1 244,4 ming tonna-km), Mo‘ynoq (6 430,1 ming tonna-km) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Tashilgan yuk aylanmasining umumiy hajmida hududlarning ulushi, % da (2023-yil yanvar-dekabr)



Hududlar bo‘yicha tashilgan yuk aylanmasining yuqori ulushi bo‘yicha yetakchi o‘rinni Nukus (24,0 foiz) shahri egalladi. Shu bilan birga To‘rtko‘l (17,2 foiz) va Ellikqal‘a (10,8 foiz) tumanlarida kuzatildi.

Aholiga, shu jumladan, iqtisodiyotning barcha sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan ishchi-xizmatchilarga, o‘quv muassasalarida ta‘lim olayotgan o‘quvchi va talabalarga yuqori sifatli transport xizmatini ko‘rsatish, avtomobil transporti oldida turgan eng muhim masaladir. Bugungi kunda hech bir fuqaro harakatini (bir manzildan boshqa bir manzilga borishni) transportsiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Yo‘lovchi tashish. 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportining barcha turlari tomonidan 146,8 mln. kishi tashilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 101,5 % ni tashkil etdi.

Avtomobil transport yo‘lovchi tashish va yo‘lovchi aylanmasi

	<i>2023-yil yanvar-dekabr</i>	<i>2022-yilga nisbatan foiz hisobida</i>
Transportda tashilgan yo‘lovchilar, <i>mln. kishi</i>	146,8	101,5
Yo‘lovchi aylanmasi, <i>mln. yo‘lovchi-km</i>	4 352,5	103,4

Jami avtomobil transportidagi yo‘lovchi aylanmasi 2022-yilga nisbatan 103,4 % ga yetdi va 4 352,5 mln. yo‘lovchi-km.ni tashkil qildi.

Respublikaning shahar va tumanlarida yo‘lovchi tashish bo‘yicha yetakchi o‘rinni Nukus shahri (53 724,8 ming kishi) egalladi. Shu bilan birga, eng yuqori ko‘rsatkichlar To‘rtko‘l (14 728,7 ming kishi) va Beruniy (13 254,3 ming kishi) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida yo‘lovchi tashish, ming kishi (2023-yil yanvar–dekabr holatiga)

	<i>ming kishi</i>	<i>2022-yilga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, foiz hisobida</i>
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	146 768,0	101,5	100,0
<i>shahar:</i>			
Nukus	53 724,8	101,0	36,6
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	9 862,7	102,1	6,7
Beruniy	13 254,3	102,4	9,0
Bo‘zatov	1 563,4	103,0	1,1
Qorao‘zak	1 862,0	101,3	1,3
Kegeyli	4 842,3	100,6	3,3
Qo‘ng‘irot	7 736,9	101,7	5,3
Qonliko‘l	1 150,1	100,7	0,8
Mo‘ynoq	1 545,7	101,0	1,1
Nukus	2 547,7	101,7	1,7
Taxiatosh	3 150,0	102,1	2,1
Taxtako‘pir	2 272,9	101,3	1,5
To‘rtko‘l	14 728,7	101,8	10,0
Xo‘jayli	9 217,4	101,5	6,3
Chimboy	5 350,7	101,6	3,6
Shumanay	1 846,4	101,5	1,3
Ellikqal‘a	12 112,0	102,1	8,3

Ko‘rsatilgan yo‘lovchi tashishda nisbatan uncha yuqori bo‘lmagan ko‘rsatkichlar, Qonliko‘l (1 150,1 ming kishi) va Mo‘ynoq (1 545,7 ming kishi) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Tashilgan yo‘lovchining umumiy hajmida hududlarning ulushi, % da
(2023-yil yanvar-dekabr)



Shahar va tumanlar kesimida tashilgan yo‘lovchining yuqori ulushi bo‘yicha yetakchi o‘rinni Nukus (36,6 foiz) shahri egalladi. Shu bilan birga To‘rtko‘l (10,0 foiz), Beruniy (9,0 foiz) tumanlarida kuzatildi.

Respublikaning yo‘lovchi aylanmasi hajmida yetakchi o‘rinni Nukus (1 341,7 mln. yo‘lovchi-km) shahri egalladi. Shu bilan birga eng yuqori ko‘rsatkich bilan To‘rtko‘l (537,7 mln. yo‘lovchi-km), Beruniy (441,4 mln. yo‘lovchi-km) tumanlarida kuzatildi.


Shahar va tumanlar kesimida yo‘lovchi aylanmasi

mln. yo‘lovchi-km

	<i>mln. yo‘lovchi-km</i>	<i>2022-yilga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, foiz hisobida</i>
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	4 352,5	103,4	100,0
<i>shahar:</i>			
Nukus	1 341,7	105,1	30,8
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	318,1	101,1	7,3
Beruniy	441,4	101,7	10,1
Bo‘zatov	52,7	101,3	1,2
Qorao‘zak	75,2	103,4	1,7
Kegeyli	190,9	105,0	4,4
Qo‘ng‘irot	218,6	102,0	5,0
Qonliko‘l	26,0	104,2	0,6
Mo‘ynoq	46,7	102,3	1,1
Nukus	83,2	102,8	1,9
Taxiatosh	91,7	101,9	2,1
Taxtako‘pir	81,1	103,5	1,9
To‘rtko‘l	537,7	103,7	12,4
Xo‘jayli	241,7	103,4	5,6
Chimboy	142,5	102,5	3,3
Shumanay	78,8	104,1	1,8
Ellikqal‘a	384,5	102,3	8,8


Ko‘rsatilgan yo‘lovchi aylanmasidagi uncha yuqori bo‘lmagan yo‘lovchi-km Qonliko‘l (26,0 mln. yo‘lovchi-km) va Mo‘ynoq (46,7 mln. yo‘lovchi-km) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**Tashilgan yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida
hududlarning ulushi, % da
(2023-yil yanvar-dekabr)**



Shahar va tumanlar bo‘yicha yo‘lovchi aylanmasining yuqori ulushi bo‘yicha yetakchi o‘rinni Nukus (30,8 foiz) shahri egalladi. Shu bilan birga To‘rtko‘l (12,4 foiz), Beruniy (10,1 foiz) tumanlarida kuzatildi.

**Transport turlari bo‘yicha yuk tashish, yuk aylanmasi,
yo‘lovchi tashish va yo‘lovchi aylanmasi
(2023-yil yanvar-dekabr oylarida)**



STATISTIK KO‘RSATKICHLARGA IZOHLAR

Umumiy foydalanishdagi avtomobil transporti – aholini va iqtisodiyotni barcha tarmoqlarining yo‘lovchilar, bagajlar va yuklar, shu jumladan, pochталarni avtomobillarda tashishga bo‘lgan ehtiyojlarini tijorat asosida ta‘minlovchi transport.

Avtotransport vositalari – yo‘lovchilar, bagajlar, yuklar tashishga hamda maxsus ishlarni bajarishga mo‘ljallangan avtomobillar, shatakchi-avtomobillar, tirkama va yarim tirkamalar.

Yo‘lovchi avtomobili – o‘zining tuzilishi va jihozlanishi jihatidan yo‘lovchilar va bagajlarni tashishga mo‘ljallangan, zarur qulaylik va xavfsizlik bilan ta‘minlangan avtomobil.

Yuk avtomobili – yuklarni tashishga mo‘ljallangan, qattiq ramali mexanik yo‘l transporti vositasi; yuk avtotransporti vositalari foydalanish xarakteri va konstruktiv xususiyatlaridan kelib chiqqan holda umumiy va ixtisoslashtirilgan vositalarga bo‘linadi.

Avtobus, mikroavtobus – yo‘lovchilarni tashishga mo‘ljallangan va haydovchi o‘rnini hisobga olmaganda sakkiztadan ortiq o‘tirish o‘rindig‘iga ega bo‘lgan, qattiq ramali mexanik yo‘l transporti vositasi.

Yengil avtomobil – haydovchi o‘rnini hisobga olmaganda, sig‘imi sakkiz kishigacha bo‘lgan yo‘lovchi avtomobili. Yengil avtomobillar soniga pochta tashishga mo‘ljallangan, sanitariya va boshqa maxsus yengil avtomobillar qo‘shilmaydi.

Tashilgan yuklar (yuk tashish hajmi) – yuk avtomobillarida, shu jumladan avtotirkamalarda, tashilgan yuklar miqdori har bir qatnov uchun yukning tara yoki konteynerlar og‘irligini hisobga olgan holdagi haqiqiy og‘irligi bo‘yicha aniqlanadi (tonnada o‘lchanadi). Tashilgan yuk hajmini avtomobilning texnik tavsifnomasida ko‘rsatilgan yuk ko‘tarish qobiliyati bo‘yicha aniqlash, faqatgina tashilgan yukning haqiqiy og‘irligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bo‘lmagan hollardagina amalga oshirilishi mumkin. Umumiy foydalanishdagi transportlarning barcha turlari uchun (avtotransportdan tashqari) tashilgan yuklarning hajmi jo‘natish vaqtida ko‘rsatilgan.

Yuk aylanmasi – transportning yuk tashish bo‘yicha ish hajmi. O‘lchov birligi tonna-kilometr hisoblanadi. Transportning yuk aylanmasi tashilayotgan yukning har bir jo‘natmasi og‘irligini uni tashish masofasiga ko‘paytmasining yig‘indisi orqali aniqlanadi.

Tashilgan yo‘lovchilar – ma‘lum vaqt davomida avtomobil vositalarida turli qatnov turlari bo‘yicha tashilgan yo‘lovchilar soni (statistik kuzatuv birligi bo‘lib yo‘lovchi-qatnovi hisoblanadi).

Yo‘lovchi aylanmasi – transportning yo‘lovchi tashish bo‘yicha ish hajmi. O‘lchov birligi yo‘lovchi-kilometr hisoblanadi. Har bir tashish bo‘yicha yo‘lovchilar sonini tashish masofasiga ko‘paytmasini yig‘indisi orqali aniqlanadi. Qatnov turlari va boshqa belgilar bo‘yicha alohida hisoblanadi.